

## O'QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KREATIVLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Yuldashev Dilshodjon Ma'murovich*

*QDP Instituti, Pedagogika-psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Inomova Madinabonu.*

*MXvaAS fakulteti, Musiqa yo'nalishi birinchi bosqich talabasi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativlik sifatlarini shakllantirish bo'yicha aniq fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'quvchilar, kreativlik, kreativ qobiliyat, kreativ sifatlar.

Kreativlik qobiliyati tushunchasining mohiyati. Kreativlik (lot., ing. —create — yaratish,—creative yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Zamonaviy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish muammosi, zamonaviy o'qitish usullaridan keng foydalangan holda kasb-hunar kolleji o'quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish davr talabidir. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi didaktik jarayon ana shu talablar asosida yo'lga qo'yilgandagina, kelgusida yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin bo'ladi.

O'quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish ulardan pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fanlarda o'rganiladigan fikrlashning xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish va ularga amal qilishni taqozo etadi. O'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlanishi kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo'l keladigan bilimlarni haqiqiy hayotdan ajralmagan holda chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Bo'lajak mutaxassislarni kreativ sifatlarini rivojlanishi uning ob'yekti hisoblanmish g'oyani to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega. Har bir yangilikdan oldin g'oya paydo bo'ladi, keyin shu yangilik haqida fikr yuritiladi va

kashfiyotlar qilinadi. Insonning fikri bir joyda turmaydi, u hayotning turli-tuman sohalari bo'ylab tinimsiz izlanish va harakatda bo'ladi.

Har qanday muammoni mustaqil ravishda hal etish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni yengishda bo'lajak o'qituvchining xarakteri shakllanadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Kreativ qobiliyat tushunchasi murakkab va serqirradir. O'zining mohiyatiga ko'ra har bir fikr ijodiy va u aqlning izlanish, yangilik yaratish hamda uni ommalashtirishga bo'lgan mustaqil harakatidir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil tafakkurning o'ziga xosligi shundaki, u inson aqliy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kreativ qobiliyat yangi muammolarni mustaqil hal etishda, bilimlarni tezlik bilan egallashda qo'l keladi.

Kreativlik sifatlarini rivojlantirish bilan bog'liq izlanishlar ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalishda mustaqil fikrlashning tashqi ko'rinishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. Ko'p olimlarning ishlari muammoni shu nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Ularda quyidagi g'oyalar aks ettirilgan:

kreativlik sifatlariga oid amaliy muammolarni mustaqil ravishda tuzmoq, bajarmoq, ijodiy xarakterdagi muammolarni yechmoq, aniq va yashirin jarayonlarning funktsional bog'lanishini tushungan holda bajarmoq va hokazo;

kreativlik sifatlari xususiyatlarini bilim va uni o'zlashtirish darajasi orqali izohlash;

kreativlik sifatlari asosini o'quvchilarning turli muammolarni hal etishdagi muammoga oid tushunchalar yig'indisini qo'shish, mulohaza qilish, ularning

o'zaro mantiqiy bog'lanishini aniqlash, bilish singari umumiy qobiliyatlari tashkil etadi.

Ikkinchi yo'nalishdagi izlanishlar ijodiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tushuntirishga bag'ishlangan. Bunda kreativlik sifatlarini shaxs xususiyatlari (kasbga bo'lgan qiziqish, shaxs uchun ijodiy fikrlashning ahamiyati, shaxsning yoshiga xos bo'lgan xususiyatlari) bilan bog'lashga harakat qilingan.

Sotsiologik nazariyaga muvofiq kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun turli ruhiy harakatlarni uyg'unlashtirish, shaxsning jismoniy va ruhiy jihatdan zaruriy muvozanatiga erishish zarur. Fikrning rivojlanishi shaxsni g'oyalarni bilish faoliyatiga tayyorlashi lozim. Jumladan, Platonning ta'kidlashicha, shaxsning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga uni bolalikdan tayyorlash zarur. Mutafakkir o'yinlarni bu yoshdagi bolalar fikrini rivojlantirish vositasi sifatida alohida ajratib ko'rsatdi.

Demak, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga oid turli zamon va makondagi nazariy qarash va ilmiy yondashuvlar hamisha bir-birini to'ldirib keladi. Mustaqil

fikrlash jarayonida fikrlovchida oldindan mavjud bo'lgan bilim, tushuncha va qarashlar real vaziyatga muvofiq tarzda modifikatsiya qilinadi, ya'ni mustaqil fikrlay boshlanganda, o'zlashtirilgan nazariy bilim aniqlashtirilib, ayni holatdagi takrorlanmas hayotiy vaziyatga mos ravishda qayta ko'rib chiqiladi va o'zgartiriladi.

Bo'lajak mutaxassisning kreativlik sifatlari deyilganda, o'quvchining tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori natijalarga erishish uchun oldida turishi mumkin bo'lgan turli ijtimoiy, kasbiy va hayotiy muammolarni hal etishga yaroqli bo'lgan faol bilish faoliyatini ta'minlaydigan mantiqiy fikrlashga oid qobiliyatlar yig'masiga egaligi tushuniladi. Kreativlik sifatlarining rivojlanishi fikrlash faoliyati manbasi, motivlari, uslublari va jarayonlari, fikrlash qobiliyatlari darajalaridan iborat. Bu unsurlarning hammasi o'zaro bog'langan. Mustaqil fikrlaydigan sub'yekt ma'lum bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, ulardan foydalanish asosida yangi bilimlar egallaydi ham.

Ko'rsatib o'tilgan ziddiyatlarni bartaraf etish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy faoliyat yaxlit manzara hosil qilishi uchun ta'lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, shartlari, vositalari, natijalari o'rtasidagi mustahkam aloqani ta'minlash, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Egamberliyeva N., Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: —Fan va texnologiya, 2013.
2. K.Xoshimov. S.Nishonova. M. Inamova va boshq. Pedagogika tarixi. Toshkent.—O'qituvchi. 1996 y.
3. Гофуров, Абдувохид Махмудович, and Абдушокир Махмудович Гофуров. "ФИЗКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПУТИ К УСОБЕРЩЕНСТВОВАНИИ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
4. Mukhammedovich, Jurayev Vokhidjon. "Psychological Foundations of Willpower in the Formation of Competition Motivation in Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 315-318.
5. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

6. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Gofurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.

7. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.

8. Abduvalievich, Abdullaev Rustamjon. "NECESSARY FORMATION OF COMPLEX COMPETENCE SAFETY OF TOURIST SERVICES DURING THE DEVELOPMENT OF A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL." Science and Innovation 2.2 (2023): 261-264.

9. Abdullabdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.

10. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.

11. Abdullayev, Rustam. "The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes." Procedia of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 57-59.

12. Abdullayev, Rustam. "INDICATORS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF FORENSIC SUPPORT FOR THE INSPECTION OF THE SCENE." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2022.

13. Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.945825205

14. Mukhammedovich, Juraev Vohidjon. "Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.

15. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.

16. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

17. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

18. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

19. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

20. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.